

Ingliz Tilini O‘Rganish: Shaxsiy Rivojlanish Va Karyera Imkoniyatlari Uchun Yo‘L

Absalamova Rohila Habibulla qizi¹

Annotatsiya: Ushbu maqola bugungi kunda ingliz tilini o’rganish shaxsiy rivojlanish va karyera imkoniyatlarini kengaytirishda muhim qadam ekanligi haqida. Shuningdek, maqola ingliz tilini o’rganish nafaqat bilim doirangizni oshirishi, shaxsiy fikrlash qobiliyatningizni mustahkamlashi bilan birga, har soniyada rivojlanib borayotgan zamon bilan hamnafas yashash imkonini yaratayotganligi haqida ham ta’kidlab o’tadi. Bunga qo’shimcha tarzda, maqolada so’ngi yillarda butun dunyo bo'yicha barcha ilmiy ishlar, gazetalar, zamonaviy-texnologik dasturlar va eng so’ngi dolzarb axborotlar ingliz tilida e’lon qilinayotganligi bois ushbu xorijiy tilni o’rganish mislsiz yengillik va yangiliklar taqdim qilayotganligiga ham urg'u berilgan.

Ключевые слова: shaxsiy rivojlanish, karyera, de-fakto, bestseller, individual shaxs, bizneslider, dominant til.

Bugungi kunda ingliz tili butun dunyo bo'yicha ommalashib borayotgan yagona til ekanligi barchamizga ma'lum. Chunki ushbu til ko'plab mamlakatlar va ma'daniyatlar o'rtasida asosiy muloqot vositasi bo'lganligi, butun jahon bo'yicha bir qancha mamlakatlarda "davlat tili" maqomiga egaligi, aholi o'rtasida ushbu tilni o'rganishga bo'lgan talab bir necha yil oldingiga nisbatan maksimal darajada oshganligi kabi bir qancha dalillar ingliz tilini butun dunyo bo'yicha globallashuviga sababchi bo'layotgan muhim omillar sifatida qaralyapdi. Ingliz tilini o'rganish, unda erkin muloqat qilish individual shaxs sifatida rivojlanishimiz, yangi tajribalarni o'rganish va xalqaro platformalarda o'z o'rmini topish uchun qulay sharoit yaratadi. Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganishning ahamiyati, shaxsiy rivojlanish va karyera uchun muhim qadam ekanligi va ushbu tilni o'rganishda eng samarali metodlar haqida so'z boradi.

Ingliz tilini o'rganishning ahamiyati haqida:

Ingliz tilini o'rganish yangi ma'daniyat va millatlarning ijtimoiy hayoti haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lish uchun zamin yaratadi. Chunki u hozirgi paytda naq 53ta mamlakatning rasmiy tili bo'lish bilan birga bir qancha davlatlarda ikkinchi asosiy til sifatida e'tirof etilyapdi. [Global education. 19.06.2022] Ingliz tilni mukammal bilgan holda dunyoning mashhur filmlarini tomosha qilish, musiqa olamidan bahra olish va bestseller adabiyotlarni mutoala qilish ushbu davlatlarning ma'daniyati va urfodatlari bilan yaqindan tanishish uchun muhim imkoniyat hisoblanadi. Boshqa millatlarning ma'daniyatidan xabardosh bo'lish to'g'risida Amerikaning sobiq prezidenti Barak Obama shunday deydi: "Madaniyatlarning xilma-xilligini o'rganish orqali bizning farqlarimizdan qo'rqish o'rniga, ularni boylik sifatida qabul qilishga o'rganamiz". Bunda dunyo ma'daniyatini ingliz tili orqali o'rganish jarayonida ikki xalq o'rtasidagi, ularning madaniyati borasidagi tafovutlarni anglash va ularni ma'naviy boylik o'rnida qabul qilishdek beg'araz g'oya ilgari surilgan. Zotan inson-o'zining madaniyati, ma'naviyati va o'z tili bilan insondir. Shunday ekan ushbu xorijiy tilni o'rganishning hayotimizda ahamiyati beqiyosdir.

Til o'rganishning karyera imkoniyatlari haqida:

So'ngi yillarda butun dunyo bo'yicha ingliz tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj oxirgi 10 yilgiga nisbatan keskin o'zgarib ketganligi hech kimg sir emas. Mana shu sababli ham xalqaro biznes, IT, ilm-fan va hattoki ta'lim sohasida ham usbu xorij tilidan samarali foydalanib kelinmoqda. Bu tilni bilish

¹ Samarqand davlat chet tillar instituti 1-kurs talabasi



orqali nafaqat yuqori malakali ish o'rniga ega bo'lish uchun bir qancha ustunliklarni qo'lga kiritish, balki ma'lum bir biznes sohasida xalqaro biznesliderlar bilan hamkor sifatida ish yuritish kabi qulay imkoniyatlarga ega bo'lish mumkin. Birgina ingliz tilini bilish orqali chet el investitsiyalarni jalg qilish va eksport salohiyatini oshirish orqali davlatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga hissa qo'shiladi. Alibaba asoschisi Jack Maning ham bisnez sohasida ingliz tili haqidagi fikri quyidagidan iborat. "Agar bisnesingizni xalqaro darajada rivojlantirishni xohlasangiz, ingliz tilini o'rganish zarur. Bu shunchaki til emas, balki global muloqot va tushunish vositasidir".

(swedishwealthinstitute)(ceoworld.website) Jack Madan boshqa yana bir qancha bisnezmenlar yoki ma'lum bir sohaning mashhur vakillari ham ushbu tilning bisnez sohasidagi o'rni haqida iliq fikrlar bildirishgan. Yuqorida fikrlar orqali Jack Ma ham ushbu tilning global muloqot doirasida tutayotgan beqiyos o'rni va xalqaro tushunish vositasi ekanligi bilan birga dunyo bo'y lab bitimlarning 90% aynan ingliz tilida tuzilishini yana bir bora ta'kidlab o'tadi.

(kun.uz.09.02.2018) Qolaversa, ingliz tili AQSH de-fakto tili va Buyuk Britaniya, Kanada, Hindiston va Janubiy Afrikaning rasmiy tili bo'lganligi uchun eng muhim ish tili sanaladi.(Global Education. Global-edu.uz.19.06.2022) Va bularning barchasi ingliz tilining dolzarb ahamiyatiga dadil bo'ladi.

Ingliz tilining boshqa umumiyligi imkoniyatlari haqida:

Hozirgi rivojlanib borayotgan texnologiyalar davrida, ingliz tili maktablarda asosiy chet tili sifatida o'qitilyapdi. Qolaversa, dunyoning eng nufuzli oliygochlari qatorida turadigan birinchi 10 ta universitetlar ham aynan ingliz tilida faolyat olib boradi. (kun.uz sinfonasi.09.02.2018) bu ham o'z navbatida mazkur tilni o'rganish uchun turtki bo'ladi. Ingliz tilini o'rganish nafaqat global hayot bilan hamnafas yashashga, balki sifatlari ta'lim olish kabi imkoniyatlarni yaratadi. Butun dunyo tan olgan Harvard, Cambridge, Oxford kabi universitetlarda ta'lim ingliz tilida olib borilishi barchaga ma'lum. Ingliz tilida erkin muloqot qila olish orqali esa ushbu universitetlarda grand ustuvorligi asosida ta'lim olish, xalqaro stipendiyalarga nomzod bo'la olish kabi bir qancha qulayliklar yaratiladi. Bu esa o'z navbatida karyera qilish va ma'lum bir sohada mukammal kadr bo'lib yetishish uchun imkon yaratadi. Jadal sur'at bilan rivojlanib borayotgan bu dunyoda, zamonaviy axborot texnologiyalari ham, asosan, ingliz tilida faolyat yuritadi. Misol tariqasida, birgina sun'iy intellekt platformalari ham ingliz tilida faoliyat yuritishi va boshqa tillarga nisbatan aynan ushbu tilda taqdim etilayotgan ma'lumotlar ko'proq ishonchli va keng ko'lamli axborotlardan iborat bo'lishi bu-mazkur til va zamonaviy axborot texnologiyalardan unumli foydalanish balansini oshiradi.

Biroq ushbu chet tilini o'rganish, albatta, bir qancha qiyinchiliklarni bosib o'tishni talab qiladi. Quyida ingliz tilini o'rganishning eng samarali yo'llari va oson o'rganish uchun tavsiyalar to'g'risida so'z boradi.

1. Doimiy amaliyat qilish:

Ma'lum bir chet tilini o'rganishda muntazamlik albatta muhim rol tutadi. O'rganilgan bilim, albatta, doimiy takrorlab turish orqali mustahkamlanib boriladi. Bejizga Abu Rayhon Beruniy: "Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir", - deya ta'kidlamagan. (hikmatlar.uz) Har kuni ozroq vaqt ajratib bo'lsa-da, mashq qilish tilni tezroq o'zlashtirish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga so'z boyligini oshirish, gapirish va eshitish bo'yicha muntazam shug'ullanib turish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. O'qish orqali bilimlarni mustahkamlash:

Har kuni iloji boricha ingliz tilidagi materiallarni o'qish ham tilni tezroq va osonroq o'zlashtirish imkonini beradi. Ingliz tilidagi kitoblar, maqolalar, endi o'rganayotganlar uchun qisqa va mazmunli hikoyalar yoki qiziqqan mavzulari asosida yozilgan jurnallarni o'qish ham samarali usul ekanligi ko'pchilik tomonidan ta'kidlanyapdi. Zero, taniqli o'zbek shoiri Shuhrat bir asari haqida aytgan fikri ya'ni: "Men bu hayotning atrofidamas, naq ichida bo'lganman", - deya ta'riflagani ham ingliz tilini o'rganishda badiiy kitob, maqola va hikoya o'qishning qanchalik ahamiyatli ekanligiga urg'u qaratadi. (7-sinf adabiyot darsligi. 31-bet) Yangi bilim o'rganish bilan birgalikda ushbu muhit bilan yashash va kundalik hayotni ushbu voqealar bilan chambarchas bog'lash mumkin.



3. Ushbu xorij tilini o‘rganishning navbatdagi samarali yo‘llaridan biri bu o‘z yoqtirgan narsalarini ham ingliz tilida bajarish:

Hayotimizning deyarli asosiy qismini shaxsiy telefonimizga sarflaymiz, shuning uchun ham telefonimizni har bir ilovalarining sozlamalarini ingliz tiliga o‘zgartirib qo‘yish ham foydadan holi emas. Bu bir tomondan ingliz tilida muhit yaratish, ikkinchi tomondan qaraydigan bo‘lsak hayotning har bir jabhasini ushbu til bilan bog‘lash demakdir. (fledu.uz. 19.02.2022) Bu yo‘l zamonaviy hayotga mos keladigan yangi so‘zlar o‘rgatadi va natijada so‘zni lug’atlardan izlashga hojat qolmaydi. Har soatda ko‘rgan ma’lumotlari atomatik tarzda ongostiga singadi. Yoki bo‘lmasa jamoaviy o‘yinlar o‘ynayotganda ham ingliz tilida muloqot qiladigan jamoaga qo’shilib o‘ynash tavsiya etiladi. Hatto ingliz tilida muloqot qiladigan davlat yoki jamiyatda yashamasa-da, mahalliy aholi orasidan ushbu chet tilida gaplashadigan alohida guruh tuzish mumkin. Bu ham o‘zini-o‘zi ingliz tili bilan band qilish, inglizcha muhit yaratish borasida muhim bositadir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “Til bilgan odam el biladi “. Jamiyatda o‘z o‘rnini qolganlarga qaraganda tezroq topa oladi. Shu bilan birga dunyo qarashi oddiy bo‘lgan insonlardan ajralib turadi. Shu sababli, vaqt borida, xohish borida o‘rganib, o‘rgatib qolish darkor. Zero, bu yo‘l insoniyatga yuksalish , o‘z ustida ishslash, oldinga harakatlanish kabi tuyg’ularni beradi va komil inson sifatida tarbiyalaydi. Qolaversa, aynan ingliz tilini bilish yanada keng yo‘llarga eshiklarni ochib berishi aniq, chunki yuqorida ta’kidlanganidek, bu til hozirgi kunda hayotimizda “Dominant” atamasi bilan yuritiluvchi tildir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Hattie, J., & Timperley, H. (2007). "The Power of Feedback." *Review of Educational Research*, 77(1), 81-112.
2. Smith, J. (2020). "Engaging Reluctant Writers: Strategies for the Modern Classroom." *Journal of Writing Education*, 15(2), 45-56.
3. Tomlinson, C. A. (2017). How to Differentiate Instruction in Academically Diverse Classrooms. ASCD.
4. Absalamov Khiloliddin Uchkunovich. (2023). The journey to proficiency: improving writing skills. *The Role of Technical Sciences in IV Industrial Civilization: International Scientific and Practical Conference* , 16(3), 183-184.
5. Absalamov Khiloliddin Uchkunovich. (2023). Mastering the art of writing: skills, strategies, and success. *Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific-Practical Conference* 12(4), 20-21.
6. Rahmonova Feruza Musakulovna, & To'ychiyeva Bahora Otabekovna. (2024). Review of Tools and Evidence Base in Public Procurement Outcomes. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 4(10), 21–25.
7. The role of alisher Navoi’s spiritual heritage in the moral education of youth PTB Nusratullayevich EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) 7 (4), 38-39.
8. Fledu.uz. 19.02.2022.
9. 7-sinf adabiyot darsligi. 31-bet.
10. Hikmatlar.uz. ilovasi.
11. Kun.uz sinfxonasi.09.02.2018.
12. Global Education. Global-edu.uz.19.06.2022.
13. Kun.uz.09.02.2018.
14. Swedishwealthinstitute. ceoworld.website
15. Global education. 19.06.2022.

